

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MAMADALIYEV FARXODBEK ZOXYDJON O'G'LI

**PAXTA CHIGITINI LINTERLASH JARAYONIDA MOMIQNI AJRATISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of dissertation (PhD)

Mamadaliyev Farxodbek Zoxidjon o‘g‘li

Linterslash jarayonida momiq olish unumdorligini oshirish maqsadida uning aerodinamik tizimini ishlab chiqish..... 3

Мамадалиев Фарходбек Зохи́джон ўғли

Разработка аэродинамической системы с целью повышения производительности получения линта в процессе линтерования..... 25

Mamadaliyev Farkhodbek

Development of an aerodynamic system in order to increase the productivity of obtaining lint in the linting process..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MAMADALIYEV FARXODBEK ZOXYDJON O'G'LI

**PAXTA CHIGITINI LINTERLASH JARAYONIDA MOMIQNI AJRATISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

UO'K: 677.051.178.2.001.76

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № V 2022.4.PHD/T3307 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Namangan muxandislik texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|---|
| Ilmiy rahbar: | Mdraximov Dilshodbek Usupjonovich texnika fanlari falsafa doktori (PhD) k.i.x. |
| Rasmiy opponenlar: | Sayidmurodov Mirzoxid Mirzaraximovich texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Sulaymonov Rustam Shennikovich texnika fanlari doktori, professor |
| Yetakchi tashkilot: | O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti |

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 13 iyul soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel.: (+99869) 228-76-71, faks: (+99869) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3 - o'quv binosi, 1 - qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (294 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (+99869) 228-76-71.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» iyunda tarqatildi.
(2024 yil «16» maydagi № 11 raqamli reestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

A.M.Maxkamov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.A.Mahsudov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

N.M.Safarov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi texnika
fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik sanoatining asosiy, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash, texnik qayta jixozlash, paxtaga dastlabki ishlov berishda korxonalar rentabelligini va ishlab chiqariladigan maxsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Xalqaro konsultativ qo‘mita (ICAC) ma’lumotlariga qaraganda 2017-2018 yil mavsumida jahon miqyosida 23,07 mln. tonna tola iste’mol qilingan bo‘lsada, ishlab chiqarilgan tola 24,55 mln.tonnani tashkil etdi”¹. Paxta tolasini eksportyorlariga AQSh, Hindiston, Avstraliya va Braziliya hamda importyorlariga Bangladesh, Vetnam, Xitoy, Turkiya va Indoneziya mamlakatlari kiradi. Paxtaga dastlabki ishlov berish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish orqali uskunalar ish unumdorligini, tozalash samaradorligini yaxshilash, ishlab chiqarilayotgan tola, chigit va momiqning sifatini oshiruvchi texnikalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va iste’molchining chigit va momiqqa bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan chigitni linterlashning samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish yangi texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslarini yaratish doirasida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan paxta tozalash korxonalarining asosiy mashinasi hisoblangan linter mashinalarining ishlash jarayonini avtomatlashtirish, ish unumdorligini oshirish, ishchi kamerani resurstejamkor qismlar bilan jihozlash, mashinaning ekspluatatsiya ishonchliligini takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan chigit va momiqni tabiiy sifatini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga linterlash texnologik jarayonida asosiy omil bo‘lgan momiqni arra tishidan to‘liq ajratib olish hisobiga chigit va momiq bo‘yicha ish unumdorligini oshirish va energiya sarfini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda paxtachilik tarmog‘ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash, texnik qayta jixozlash, paxtaga dastlabki ishlov berishda korxonalar rentabelligini va ishlab chiqariladigan maxsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish surhatlarini ta’minlash bo‘yicha: “To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga ko‘paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish”² bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va iste’molchining chigit va momiqqa bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan chigitni linterlashning samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 fevraldagi

¹ Cotton World Statics.<https://www/statista.com>; <http://www.ICAC.org>;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

“Paxtasanoat Ilmiy Markazi” AJ ning faoliyatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3559-son Qarori, 2015 yil 4 martdagi PQ-4707-son «2015-2019 yillar uchun tarkibiy islohotlar, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga doir chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifani amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Linter ishchi qismlarini takomillashtirish, resurstejamkorligini oshirish, chigitni linterlash texnologiyasini takomillashtirish, paxta chigitini linterlashni ishlab chiqarish jarayonlariga va olinadigan chigit hamda momiqning sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga ta’siri masalalari bir qator olimlar: J.Gino, Jr. Mangialardi, W. Stanley, D.Michael, S. Anthony, J Price, A. Griffin va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Paxta chigitini linterlash jarayonini takomillashtirish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash bo‘yicha nazariy-metodologik asosi bo‘lgan fundamental va amaliy masalalarni yechishga mamlakatimizda bir qator olimlar: B.A. Levkovich, D.A. Shepelevich, S.P. Ivanov, I.I. Xoxlov, K.K. Iskandarov, B.Y. Kushakeev, V.V. Dyachkov, R.Sh. Sulaymonov, E.K. Nuraliev va boshqalar soha rivojlanishiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shganlar.

Paxta chigitini linterlashda linter arrali silindri tishlaridan momiqni to‘liq ajratib olish va pnevmatransport tizimida tashish tizimini takomillashtirish orqali ishchi kameradan momiqni tashqariga o‘z vaqtida chiqishini ta’minlash bilan chigitning mexanik shikastlanishini, momiqning ifloslik darajasini kamaytirish orqali ularning sifatini oshirish muammosi hozirgi vaqtgacha hal etilmagan. ЦНИИХПром tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar paxta tozalash korxonalarining linterlash sexlarida qo‘llanilmayapti. Bu sexlarda hozirgi kunda linter mashinasining havo kamerasiga havo purkovchi BIQ-8 rusumli ventilyatorlarni ishlatilmayotganligini kuzatish mumkin. Buning natijasida linter mashinalarining tag qismida momiqni to‘kilish xolatlari, sexni changishi, sanitariya xolatlarini yomonlashuvi sodir bo‘lmoqda. Shuning uchun linter mashinalari batareyasining aerodinamik tizimlarlarini o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Paxta tozalash korxonasida” (2022-2023) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Linterlash jarayonida momiqni arra tishlaridan to‘liq ajratib olish va pnevmatransport tashish aerodinamik tizimini takomillashtirish, texnologik va konstruksion parametrlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot ob’ekti sifatida linterlash jarayonida momiqni arra tishlaridan ajratib olish va pnevmatik quvurlarda tashish aerodinamik rejimlarini o‘rganish.

taklif etilgan paxta chigitini linterlash texnologik jarayonida har bir linter mashinasining havo kamerasiga aloxida oʻrnatiladigan havoni purkab beruvchi ventilyatorning konstruksiyasi, asosiy parametrlari va aerodinamik ish rejimlarini asoslash hamda linterlash texnologik jarayonini samaradorligini oshirishni taʼminlash maqsadida nazariy va eksperimental tadqiqotlar oʻtkazish.

ishlab chiqarish sharoitida taklif etilgan paxta chigitini linterlash texnologik jarayonida har bir linter mashinasining havo kamerasiga aloxida oʻrnatiladigan havoni purkab beruvchi ventilyatorning konstruksiyasini asosiy koʻrsatkichlari - agrotexnik, energiya, texnik koʻrsatkichlarini aniqlash.

taklif etilgan paxta chigitini linterlash texnologik jarayonida har bir linter mashinasining havo kamerasiga aloxida oʻrnatiladigan havoni purkab beruvchi ventilyatorni asosiy parametrlari asoslangan nusxasini tayyorlash va ishlab chiqarish sharoitida sinovlarini oʻtkazish, iqtisodiy baholash va uni ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqotning obʼekti sifatida linter mashinasining havo kamerasiga purkovchi havoni yetkazib berishni taʼminlovchi tizim olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida linterlash jarayonida momiqni arra tishlaridan toʻliq ajratib olishni purkovchi ventilyator konstruksiyasi va texnologik parametrlariga bogʻliqligi qonuniyatlari, momiqni momiq quvuriga soʻrilish qonuniyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mashina va mexanizmlar nazariyasi, mexanika, oliy matematika va tebranishlar nazariyasi, texnologik mashinalarni ish jarayonlarini matematik statistika va hisoblash matematikasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

linterlash jarayonida momiqni arra tishlaridan toʻliq ajratib olishni taʼminlovchi har bir linter mashinasining havo kamerasiga purkovchi havoni yetkazib beruvchi kichik hajmli ventilyator konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

linterlash texnologik jarayonida har bir linter mashinasining havo kamerasiga alohida oʻrnatiladigan havoni purkab beruvchi ventilyatorning aerodinamik ish rejimlari aniqlangan;

linterlash texnologik jarayonida har bir linter mashinasining havo kamerasi soplosidan chiqayotgan purkovchi havoning miqdorini, tezligi va bir tekisligini arra tishlaridan momiqni toʻliq ajratib olinishiga taʼsiri koʻp omilli tajribalar asosida aniqlangan;

linterlash jarayonida kichik hajmli alohida ornatiladigan ventilyator aerodinamik rejimining momiq tutami traektoriyasi va ajratib olish vaqtini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: linter mashinasining havo kamerasiga momiqni arra tishlaridan toʻliq ajratib olishni taʼminlaydigan kichik oʻlchamli havo purkovchi ventilyatorning konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

linter mashinasining havo kamerasiga momiqni arra tishlaridan toʻliq ajratib olishni taʼminlaydigan kichik oʻlchamli havo purkovchi ventilyatorning konstruktiv parametrlari nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi linter mashinasining havo kamerasiga oʻrnatilgan kichik oʻlchamli havo purkovchi ventilyatorni konstruktiv parametrlarini tajriba sinovlarini laboratoriya va paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarish sharoitida oʻtkazilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining oʻzaro mosligi, ularni maʼlum baholash meʼzonlari boʻyicha adekvatligi, aprotatsiya va joriy qilish, oʻtkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularni koʻrib chiqilayotgan fan sohasidagi maʼlumotlarni qiyosiy tahlili bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati linterlash jarayonida momiqni arra tishlaridan ajratib olish toʻliqligini purkovchi havoning havo kamerasidagi statik bosimi, soplodan chiqish tezligi va tekisligiga taʼsirining nazariy tadqiqotlari, algoritmik yechimi ishlab chiqilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati linter mashinasining havo kamerasiga oʻrnatilgan kichik oʻlchamli havo purkovchi ventilyatorni konstruktiv parametrlarini tajriba sinovlarini laboratoriya va paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarish sharoitida oʻtkazilganligi va bu tizimni ishlab chiqarish sharoitida qoʻllash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta tozalash korxonalarida linter mashinasining havo kamerasiga oʻrnatilgan kichik oʻlchamli havo purkovchi ventilyatorni konstruktiv parametrlarini chigitni linterlashda samaradorligi yuqori boʻlishi boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadqiqot natijalarida linter mashinasining havo kamerasiga oʻrnatilgan kichik oʻlchamli havo purkovchi ventilyatorni konstruktiv parametrlarini asoslangan nusxasi Andijon viloyatining “QADIR TEXTILE CLUSTER” MCHJ paxta tozalash korxonasining chigitni linterlash sexiga joriy etildi (“Oʻzbekiston Paxta-toʻqimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 16 noyabrgi 03-22/902-son maʼlumotnomasi). Natijada ishlab chiqarishda aerodinamik rejimga ega boʻlgan 5JIII linter mashinasida momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi oʻrtacha 5,7 % ni tashkil etib, amaldagi 5JIII linter mashinasidan ishlab chiqarilgan momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushidan 0,9 (abs) % ga kam boʻlishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta respublika ilmiy-texnik va 5 ta xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola nashr etilgan, shulardan 5 ta maqola Respublika va 3 ta maqola chet el jurnallarida chop etilib, Oʻzbekiston Respublikasi intellektual mulk Agentligining foydali modeliga talabnoma yuborildi.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 103 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanadi, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublika fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi; uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini tavsiflaydi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot beradi.

Dissertatsiyaning **“Chigitni linterlash jarayoni ish unumdorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni analitik taxlili”** deb nomlangan birinchi tukli chigitlarini linterlash texnologiyasi va texnik vositalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Aniqlanishicha, uzluksiz siklda ishlaydigan linter mashinalari batareyasidan momiqni tashish aerodinamik tizimi hozirgi kun talablariga mutlaqo javob bermaydi, linter mashinalarini ishchi kamerasida ajratib olinadigan momiq maxsulotini arra tishlaridan to'liq ajratib olinmayotgani, linter mashinasining momiq va chigit bo'yicha ish unumdorligini pasayishiga, momiqni linter mashinalarini pastki qismiga to'kilishi va linterlangan chigitlar bilan aralashishi oqibatini momiqni sifati yomonlashish xolatlari ro'y bermoqda. Aniqlangan bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun texnik yechim ishlab chiqildi.

Texnik yechimning mohiyati 1-rasm bilan izohlanadi, bu yerda har bir linter mashinasining havo kameralari orqali alohida sozlanishi havo taqsimoti bilan momiqlarni ajratib olishdan foydalanish uchun tavsiya etilgan tizimning sxemasi ko'rsatilgan.



1-rasm. Har bir linter mashinasining havo kamerasiga tavsiya etilgan purkovchi kichik o'lchamdagi ventilyator o'rnatilgan aerodinamik tizim sxemasi

Har bir linter havo kameralari orqali alohida rostlanuvchi havo tarqatish bilan momiq ajratib tizimi (1-rasm) havo kamerasi 1, arrali silindr tishlarini yo'nalishiga teskari o'rnatilgan soplo 2, arrali silindr 3, momiq quvuri 4, havo kamerasini germetik yopilgan yon devori 5 ning kirish qismida planka 7 da maxkamlangan silindrik quvur 6 ichidagi tokcha 8 da elektr uzatma 10 li kichik o'lchamdagi ventilyator 9 dan iborat. Har bir linter mashinasining havo kameralari orqali alohida sozlanishi havo taqsimotiga ega momiqlarni olib tashlash tizimi quyidagicha ishlaydi. Linter mashinasini ishga tushirishdan oldin momiqni tashish pnevmatik tizimi yoqiladi (sxemada ko'rsatilmagan).


Linter mashinasi ishlayotganda uning havo kamerasi 1 da kerakli statik bosim hosil bo‘ladi, u yuqori tezlikda soplo 2 dan chiqadi va arrali silindr tishlari 3 dan momiq ajratib olinib, momiq quvuri 4 bo‘ylab tashiladi. Havo kamerasi 1 da, kerakli statik bosim havo kamerasini germetik yopilgan yon devori 5 ning kirish qismida planka 7 da maxkamlangan silindrik quvur 6 ichidagi tokcha 8 da elektr uzatma 10 li kichik o‘lchamdagi ventilyator 9 tomonidan hosil qilinadi.

Linter mashinasining takomillashtirilgan aerodinamik rejimli taklif qilingan sxemasi asosida o‘zgartirilgan parametrlarga ega laboratoriya tajriba nusxasi tayyorlandi, tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqildi, maqsad va vazifalar aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Momiqni arra tishidan ajratib olish va tashish tizimini nazariy o‘rganish**”, nomli ikkinchi bobida taklif etilgan aerodinamik rejimli linter mashinasining asosiy geometrik parametrlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

Nazariy taxlillar uchun mavjud linter mashinalari batareyasining havo kameralarini bir o‘qda joylashgan deb qabul qilib olamiz.

Koordinata boshini linter mashinalari batareyasining havo quvuri kamerasini boshlanish qismi kesimiga qo‘yib, $0x$ o‘qini kamera markaziy chizig‘i bo‘ylab yo‘naltiramiz. Havo quvuri kamerasi ko‘ndalang kesimi $S = s(x)$ qonuniyatiga ko‘ra o‘zgaradi deb qabul qilamiz, uning istalgan kesimidagi harakat parametrlari: havo tezligi - $u_0(x)$ (0 indeksi), kamerani $x=0$ kesimida harakatlanayotgan tezligi u_{00} ega bo‘lgan havo oqimi ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘lsin (2-rasm).



2-rasm. Linter mashinasi batareyasining havo quvuridagi havoning harakati

Akademik X.A. Raxmatulin modeliga ko‘ra, havo quvuri kamerasidan o‘tuvchi havo oqimi komponentlarini bir o‘lchamli harakati tenglamasi va massani saqlanish qonunini quyidagicha yozamiz:

$$\rho_0 u_0 \frac{du_0}{dx} = -\frac{\rho_0}{\rho_0^{(0)}} \frac{dp}{dx} + k(u_1 - u_0) \quad (1)$$

$$\rho_0 u_0 s = u_{00} \rho_{00} s_0 = const, \quad \rho_0 = m \rho_0^{(0)}, \quad \rho_0 = \frac{m}{m_0} \rho_{00}, \quad (2)$$

bu yerda: ρ_0 , - havo quvuridagi havoning zichligi;

$\rho_0^{(0)}$ - $x=L$ kesimdagi havo quvuri uzunligi bo‘ylab havo zichligi;

k - aerodinamik qarshilik koeffitsienti;

u_1 - $x=L$ kesimdagi havoning oxirgi tezligi;

ρ_{00} , u_{00} , - havo quvurini $x=0$ kesimidagi havo zichligi va boshlang‘ich tezligi.

Havoning u_{00} tezligini havo quvuri bo'yicha Q_0 (m^3/c) ish unumidan kelib chiqib topish mumkin:

$$u_{00} = Q_0 / m_0 \rho_{00} s_0, \quad (3)$$

(2) va (3) tenglamalardan havoning havo quvuridagi har bir linter mashinasidan oqib o'tuvchi tezligi va zichligi quyidagicha aniqlanadi:

$$u_0 = \frac{m_0}{m} \frac{s_0}{s} u_{00}, \quad \frac{\rho_0}{\rho_0^{(0)}} + \frac{\rho_1}{\rho_0^{(0)}} = 1 \quad (4)$$

(2) tenglamadan foydalanib (1) tenglamani quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$\rho_0^{(0)} u_0 \frac{du_0}{dx} = -\frac{dp}{dx} + \frac{\rho_0^{(0)}}{\rho_0} k(u_1 - u_0) \quad (5)$$


$$\rho_1^{(0)} u_1 \frac{du_1}{dx} = -\frac{dp}{dx} - \frac{\rho_1^{(0)}}{\rho_1} k(u_1 - u_0) \quad (6)$$

(5) va (6) tenglamalardan havo quvuridagi havo oqimi tezligini va bosimini havo quvuri uzunligi bo'ylab harakatini tahlil qilishda Maple-6 dasturi orqali ratsional qiymatlarida grafiklari 3-rasmda keltirilgan. Bundan tashqari tavsiya qilinayotgan har bir linter oldiga o'rnatilgan ventilyatorlar yordamidagi havo oqimini harakati tahlil qilingan.

Hisoblash quyidagi parametrlarda bajarilgan:

$$m_0 = 0.8 \rho p, \quad u_{00} = 20 \text{ m/c}, \quad u_{10} = 2.93 \text{ m/c}, \quad \rho_{00} = 1.2 \text{ kg/m}^3, \quad a = 1.4 \text{ m}, \quad h = 1.4 \text{ m}, \quad L = 15 \text{ m},$$

$$p = 24.6 \text{ kg/m}^2, \quad S_0 = 0.0294 \text{ m}^2, \quad Q_0 = 1.1 \text{ m}^3/\text{c}$$




3-rasm. Linter batareyalari quvuridagi havo tezligining $u_0 = 20 \text{ m/c}$ qiymatida va dinamik bosimini $P = 24.6 \div 0.52 \text{ kg/m}^2$ oraliqdagi o'zgarishi va kameradagi $[0, L]$ oraliqlardagi grafiklari.

Qurilgan grafikning taxlili shuni ko'rsatdiki, dastlabki linter mashinasidagi havo quvurida ventilyatordan chiqayotgan havoning tezligi 20,06 m/s, dinamik bosim 24.6 kg/m^2 va statik bosim 180 kg/m^2 ga teng bo'lib, linter mashinalari batareyasining oltinchisiga kelib havo quvuridagi tezlik 2.93 m/s ni, dinamik bosim 0.52 kg/m^2 va statik bosim 140 kg/m^2 ga cha tushib ketishi mumkin ekan.

Qurilgan grafik (3-rasm) tahlilidan aytish mumkinki, havoning quvurdagi harakatidan har bir linter mashinasidagi ajratib olingan momiqlarni arra tishlaridan to'liq ajratib olinib so'rilish quvuriga yetkazish imkoniyatini bermaydi, ya'ni havo

oqimi tezligining keskin kamayishi hisobiga statik va dinamik bosim ham kamayadi va ketma-ket joylashgan linter batereyalaridagi ajratib olingan momiqlarni purkash uchun havo oqimi yetarlicha bormasligini grafikdan ko‘rishimiz mumkin. Buning natijasida chigitdan ajratib olingan momiqlar qayta chigitli valik bilan birgalikda aralashib ketadi yoki momig‘i ajralgan chigit bilan aralashib tashqariga chiqib ketish holati kuzatiladi.

Arra tishi ilib olgan momiq harakatini ko‘rib chiqamiz. Silindr yuzasida tishlar holatini ma’lum ko‘rsatkichlar bilan aniqlaymiz: tishlar joylashuvi B yoki B_1 , sxemada $OB = R$, tish balandligi $BC = h_0$ va tishning og‘ish burchagi OBC (4 – rasm). Momiqqa og‘irlik va ishqalanish kuchi ta’sir qiladi. Og‘irlik kuchi bosimi ta’sirida kuch shartlanadi. Masofa $BA = r$ umumlashtirilgan koordinata sifatida olinib, momiqni tish bo‘ylab harakatini aniqlash uchun Lagranjning II-turdagi tenglamasidan foydalanamiz.



4-rasm. Momiqning arra tishi bo‘ylab harakati

Momiqning arra tishidagi massasining koordinatadagi joylashuvini quyidagicha yozamiz:

$$\begin{aligned} x &= R \cos \omega t + r \cos(\alpha - \omega t) \\ y &= R \sin \omega t + r \sin(\alpha - \omega t) \end{aligned} \quad (7)$$

m massadagi momiqning kinetik energiyasini aniqlash uchun (7) tenglikdan vaqt bo‘yicha harakat tenglamasidan xosila olamiz va quyidagiga teng bo‘ladi:

$$T = \frac{m}{2} (\dot{x}^2 + \dot{y}^2) = \frac{m}{r} (R^2 \omega^2 + r^2 + r^2 \omega^2 + 2R\omega \dot{r} \sin \alpha - 2R\omega^2 r \cos \alpha) \quad (8)$$

Lagranjning II turdagi tenglamasidan foydalanib (8) tenglikdan xususiy xosila olinadi:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T}{\partial \dot{r}} \right) - \frac{\partial T}{\partial r} = Q_r \quad (9)$$

$$P = S \cdot p \sin \lambda \quad (10)$$

bu yerda: S -momiqni tish bilan bog‘lanish yuzasi;

λ -og‘irlik kuchi bilan arra tishi yuzasi orasidagi burchak.

$$\lambda = \arcsin \frac{R \sin \alpha}{\sqrt{R^2 + h_0^2 - 2Rh_0 \cos \alpha}} \quad (11)$$

Bularni hisobga olgan holda momiqni tish bilan umumiy bog‘lanish kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_r = -mg \sin(\alpha - \omega t) + fmg \cos(\alpha - \omega t) + 2mfr\omega \cos \alpha + P \sin \lambda \left(\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi \right) \quad (12)$$


Silindr arra tishi ta’siridagi momiqning harakatini aniqlashda ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

Radius R oshganda α ning o‘shish intensivligi kamayib boradi. (13) tenglamadan ventilyator orqali berilayotgan havo tezligini bosim bo‘yicha o‘zgarish qonuniyati aniqlangan.

$$\ddot{r} - \omega^2 \cdot r + 2 \cdot f \cdot \dot{r} \cdot \omega \cdot \cos \alpha = -\omega^2 \cdot R \cdot \cos \alpha - g[\sin(\alpha - \omega t) - f \cos(\alpha - \omega t)] + \left(\frac{Q}{\rho \cdot g} - g_0 \right) \cdot P \cdot \sin \lambda \quad (13)$$

Bu bog‘liqlikdan havo quviriga qo‘shimcha ventilyator o‘rnatilgan momiq ajratgich arrali silindr tezlik ko‘rsatkichlarini va arra tishi burchagini hamda momiqni olib ketish quvuri o‘lchamlarining ratsional qiymatlarini tanlab olish mumkin.

Linter mashinasiga ventilyator orqali berilayotgan havo tezligi vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan bo‘lib, ushbu 5-rasmda soplo uzunligi bo‘yicha bosim taqsimoti ko‘rsatilgan xolatda bo‘lishi ta’minlanganligini olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalarida ko‘rishimiz mumkin. Chunki har bir linter mashinasidagi soplo uzunligi bo‘yicha taklif etilayotgan aerodinamik tizimda statik bosim ortadi.




1- Amaldagi aerodinamik rejim, 2-Taklif etilayotgan aerodinamik rejim

5-rasm: Linter mashinasiga ventilyator orqali berilayotgan havo bosimining soplo uzunligi bo‘yicha taqsimot grafigi

Tavsiya qilinayotgan qo‘shimcha ventilyatorlardan foydalanib har bir linter oldida havo oqimini bir xil tezlikda tekis uzatish orqali linter mashinasidagi chigitlardan ajratilgan momiqlarni arra tishidan to‘liq ajratib olinib so‘rish quvuriga yuborish imkonini beradi (6-rasm).

6- rasmdagi keltirilgan belgilanishlar quyidagilar: ρ_1 -zichlik, R_1 –bosim, V_1 -havo oqimi tezligi, b_1 - momiqni arra tishlaridan ajratish zonasi kengligi, V - tezlik, ρ -zichlik, r –bosim, V - tezlik, ρ_{10} - zichlik, p_{10} - bosim.



6-rasm: Linter ishchi silindri va havo quvuriga o'rnatilgan qo'shimcha havo beruvchi mashina orasidagi havo oqimining harakatlanish sxemasi

Keltirishlar natijasida $x = l$ va $x = 0$ qatlam chegaralari bo'yicha ta'sir etuvchi bosimni p_{10} va $p_{20} \cos \alpha_0$ orqali belgilaymiz. Natijada ular o'z o'rniga ega bo'lib, turli holatlari uzatish uchastkasidan massali momiqni ajratib olishi mumkin. U holda, $(0 < x < l)$ oraliq ichida $p(x)$ funksiyani aniqlash uchun $p(0) = p_{20} \cos \alpha$ bo'lgan shartda $0 < x < c$ uchastkada $x > 0$ belgisini va $p(l) = p_{10}$ shartda $c < x < l$ uchastkada $x < 0$ belgisini qabul qilib, quyidagi (14) tenglamani integrallash lozim bo'ladi. Agar, berilgan p_{10} va $p_{20} \cos \alpha_0$ bosimda tolalarni ajratib olishning iloji bo'lsa, u holda olingan $p_1(x)$ ($0 < x < c$) va $p_2(x)$ ($c < x < l$) egri chiziqlar ayrim nuqtalarda $x = c$ absissa bilan kesishadi. Shuning uchun ushbu nuqtani ikkala uchastkaning chegarasi deb hisoblaymiz.

$$\frac{dp}{dx} = P_0(x) \cdot p = P_1(x) \quad (14)$$

Yuqorida keltirilgan (14) tenglamani ($x > 0$ belgisi qabul qilinganda) x $0 < x < c$ oraliqda va ($x < 0$ belgisi qabul qilinganda) $c < x < l$ oraliqda integrallagan holda, $p_2(x)$ va $p_1(x)$ bosim uchun quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:


$$p_2(x) = P_{22}(x) \left[\frac{p_{10}}{P_{22}(l)} - \int_x^{xl} \frac{P_1(x)}{P_{22}(x)} dx \right], \quad c < x < l \quad (15)$$

$$p_1(x) = P_{21}(x) \left[\frac{p_{20} \cos \alpha_0}{P_{21}(0)} + \int_0^x \frac{P_1(x)}{P_{21}(x)} dx \right] \quad -c < x < l \quad (16)$$

Hisob kitoblarda quyidagi qiymatlar qabul qilingan:

$$p_{10} = 5 \text{Па} , \quad v_{10} = 0.61 \text{М/с} , \quad v_{20} = 1.57 \text{М/с} , \quad R_1 = 0.16 \text{М} , \quad R_2 = 0.056 \text{М} , \quad x_0 = 0.05 \text{М} , \\ d = 0.154 \text{М} , \quad c = 0.09 \text{М}$$

Qurilgan grafiklardan ko'rinadiki (7-rasm), siqilish zonasida eng kichik qatlam kengligi kesimida momiq massasida eng katta bosim namoyon bo'ladi. Bunda tanlab olingan ko'rsatkichlar uchun $x = c$ o'tish nuqtasidagi koordinata masalalari $x = h$ kesimdan yuqorida joylashgan.



1- $Q_0 = 0,02t/\text{soat}$, 2- $Q_0 = 0,03t/\text{soat}$, 3- $Q_0 = 0,04t/\text{soat}$

7-rasm. Momiqni arra tishlaridan ajratish zonasiga kirishdagi bosimning $p_{10} = 8Pa$ qiymatlari uchun O_x o‘q bo‘ylab momiq oqimining tezligi va unumdorlikning taqsimlanish grafigi

Momiqni arra tishlaridan ajratish zonasiga kirishdagi unumdorlik, bosimning har xil qiymatlari uchun O_x o‘q bo‘ylab momiq oqimining tezligi va p (Pa) bosimining taqsimlanishini ko‘radigan bo‘lsak, taklif qilinayotgan so‘rish usuliga asoslangan momiq ajratish moslamasida so‘ruvchi tirqishning 0,02-0,1 m qiymatlarida 50-200 Pa bosim hosil qilib arra tishidan momiqni samarali ajratish mumkin. Bu holatda so‘rish quvuridagi tezlik 1.4-2 m/s kattalikni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Linter mashinasida momiqni ajratish va tashish takomillashtirilgan qurilmasining parametrlarini asoslash”** nomli uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarning maxsus ishlab chiqilgan usullari, shuningdek tavsiya etilgan aerodinamik rejimli qurilmaning parametrlari va ish rejimlarini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.


Barcha rejalashtirilgan tajribalar “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ laboratoriya sexiga o‘rnatilgan linter mashinasining laboratoriya namunasida o‘tkazildi (8-rasm). Laboratoriya linter mashinasida 5JIII linter mashinasidagi kabi 320 mm li arrali silindr, chigit aralastirgich, faqat diametri 180 mm gacha kattalashtirilgan, ilmiy markazda takomillashtirilgan varianti qo‘llanilgan. Eng asosiy jixati uning texnologik ish jarayoni amaldagi linter mashinasining ish jarayonidan farq qilmasligini e‘tiborga olgan xolda, shu laboratoriya linter mashinasida rejalashtirilgan tajribalarni o‘tkazish mumkin deb xulosa qilindi.

Rejalashtirilgan tajriba variantlarini o‘tkazish uchun tanlab olingan laboratoriya linter mashinasining aerodinamik tizimi sxemasi ishlab chiqildi (9-rasm). Ishlab chiqilgan aerodinamik sxemaga asosan kichik hajmli 1,0 m³/soat gacha havo sarfini ta‘minlay oladigan ventilyator xarid qilindi. Ilmiy markaz qoshidagi “RIM Ustaxonasi” MCHJ da kerakli extiyot qismlar, quvurlar tayyorlanib, sxemada ko‘rsatilgan laboratoriya stendi yig‘ildi.



8-rasm Tajribalar o‘tkazish uchun tanlab olingan laboratoriya linter mashinasining umumiy ko‘rinishi

Eksperimental yig‘ilgan laboratoriya stendining chigitni linterlash texnologik jarayoni quyidagicha (9-rasm): Linter mashinasining ta‘minlash tizimi orqali tukli chigitlar linter 1 ning ishchi kamerasiga yo‘naltiriladi. Linter mashinasining chigit aralastirgichi yordamida ishchi kamerasida chigitli valik hosil bo‘ladi, arra silindri aylanganda uning tishlari tukli chigitlardan momiqni qirib oladi. Linter mashinasining arrali silindri tishlaridan momiqni ajratib olish va tashish tizimi purkovchi 2 va so‘ruvchi 3 ventilyatorlar, purkovchi 4 va so‘rish 5 quvurlaridan iborat bo‘lib, ular orqali arra tishlaridan ajratib olingan momiq momiq kondensori 6 ga kiradi. Momiq kondensori 6 da momiq havodan ajratib olinadi va uning tag qismiga o‘rnatilgan qiya tarnovdan momiq yig‘ish maydonchasiga tushadi. Ifloslangan havo siklon 8 da yordamida tozalanadi. Linter mashinasi laboratoriya stendini boshqarish boshqaruv paneli 9 orqali amalga oshiriladi.



9-rasm. Tajribalar o‘tkazish uchun ishlab chiqilgan laboratoriya linter mashinasi stendining sxemasi (chapda) va tayyorlangan xolatda umumiy ko‘rinishi (o‘ngda)

Linter mashinasi chigit aralashtirgichining aylanish tezligi 500 ayl / daq. ga teng bo'ldi, arrali silindriniki 730 ayl/daq, kolosnikli panjara ustida ishchi kamerasiga arrani chiqishi 35 mm ga teng bo'lishi, ya'ni amaldagi 5JIII linter mashinalarinikidan farq qilmasligi ta'minlandi.

Linter mashinasining ishchi kamerasiga chigitlarni uzatish linter mashinasining ta'minlagichi tomonidan tartibga solindi. Tajribalarning har bir takrorlanishi uchun 50 kg miqdorida bir xil tukli chigitlar ishlatildi. Tajribaning har bir varianti uch marta takrorlanishda o'tkazildi. Linter mashinasida tajribalar boshlanishidan oldin tajribalarning variantlari bo'yicha rejalashtirilgan zarur rostlanishlar amalga oshirildi (masalan, havo miqdorini o'zgartirish, statik bosimni o'zgartirish va x/k.)


Tajribalar variantlarini o'tkazish uchun havo sarfi miqdori 1,0 m³/s ga teng bo'lgan ventilyatordan foydalanildi. Ventilyator parragingining aylanishlar tezligi 1500 ayl./daq. teng bo'lib, 0,6 kVt li elektr dvigatel yordamida ishlatiladi. Laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tajribalarda Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida yetishtirilgan C-6524 seleksion navli paxtani dastlabki ishlashdan olingan tukli texnik chigitdan foydalanildi. Ishlatilgan texnik chigitning ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Dastlabki texnik chigitning ilmiy markaz laboratoriyasida aniqlangan ko'rsatkichlari

| Paxta mahsuloti | | Dastlabki texnik chigitning ko'rsatkichlari, % | | | |
|-----------------|-------------|--|---------------------------|-----------|---------|
| Navi | | Qoldiq tukdorligi | Mexanik shikastlanganligi | Iflosligi | namligi |
| seleksion navi | Sanoat navi | | | | |
| C-6524 | I | 10,5 | 3,8 | 3,1 | 9,8 |
| C-6524 | IV | 12,0 | 4,6 | 4,3 | 10,1 |

Purkovchi havoni linterlash jarayonida olinadigan momiqni miqdori va linter mashinasining ish unumdorligiga ta'sirini o'rganish natijalari 2, 3-jadvallarda va 10 va 11-rasmlarda keltirilgan.



10-rasm: Purkovchi havoni linter mashinasining ish unumdorligiga ta'siri (C-6524 navi, I -sanoat navi)




11-rasm: Purkovchi havoni linter mashinasining ish unumdorligiga ta'siri (C-6524 navi, IV -sanoat navi)

10 va 11-rasmlarda keltirilgan tajriba natijalaridan ko'rinib turibdiki, linter mashinasining havo kamerasiga tavsiya etilgan miqdordagi purkovchi havoni kiritish yo'li bilan linter mashinasining chigit o'tkazish bo'yicha xam, momiq olish bo'yicha xam ish unumdorligini oshirish mumkin ekan, ya'ni 0,4 m³/s ga teng bo'lgan purkovchi havoni kiritish yo'li bilan linterlash jarayoni bajarilganida linter mashinasining chigit o'tkazish bo'yicha ish unumdorligi 780 kg/soatni (255 kg/soatni), momiq olish bo'yicha xam ish unumdorligi 34,88 kg/soatni (10,46 kg/soat) ni tashkil etdi. Linter mashinasining havo kamerasiga purkovchi havoni kiritmasdan, faqat 0,4 m³/s ga teng bo'lgan so'ruvchi havo bilan linterlash jarayoni bajarilganida linter mashinasining chigit o'tkazish bo'yicha ish unumdorligi 708 kg/soatni (228 kg/soatni), momiq olish bo'yicha xam ish unumdorligi 30,24 kg/soatni (9,07 kg/soat) ni tashkil etdi. Bu degani linter mashinasini xam purkovchi xam so'ruvchi havoni ko'llanib linterlash jarayoni bajarilsa, faqat so'ruvchi havo bilan linterlash jarayoni bajarilganiga nisbatan linter mashinasining chigit o'tkazish bo'yicha ish unumdorligi 10,58 % ga, momiq olish bo'yicha xam ish unumdorligi 13,29 % ga oshishiga erishish mumkin ekan.

12-rasmdagi grafikdan ko'rish mumkinki, faqat so'ruvchi ventilyatordan foydalanib linterlash jarayonida linter mashinasining tag qismiga 15,3 % momiq to'kilib qoladi va bu degani momiq kondensorigacha 84,7 % miqdoridagi momiq tashilishi ta'minlanadi. Bu holatda har bir linter mashinasining tag qismidan 15,3 % miqdoridagi momiqni yig'ishtirib olishda qo'l mexnati talab etiladi.

Ikkinchidan buncha miqdordagi momiqni to'kilgan chigit va iflosliklar bilan aralashib ketishi natijasida uning sifat ko'rsatkichlari yomonlashadi. Linter mashinasining havo kamerasiga 0,4 m³/s miqdorida purkovchi havo berilganida uning tag qismiga to'kiladigan momiq miqdori kamayib momiq kondensorigacha tashib borilgan momiq miqdori 99,4 % gacha yetganini ko'rish mumkin. Purkovchi havo miqdorini 0,4 m³/s dan oshirish xam tavsiya qilinmaydi, chunki bunda purkovchi havoning miqdori so'ruvchi havoning miqdoridan oshib ketgani sababli arrali silindr tishlaridan ajratib olingan momiqni linter tagiga purkashi kuzatiladi.



